



BO'LAJAK TARBIYACHILARNING KASBIY SHAKLLANISHIDA MENTORLIKNING AHAMIYATI

Jabborova Marifat Qodiraliyevna

*Farg'ona davlat universiteti Maktabgacha ta'lim kafedrası dotsenti Pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)*

Fayozova Sarvinoz Tursunali qizi

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy shakllanish jarayonida mentorlik tizimining o'rni va ahamiyati ilmiy asosda yoritilgan. Mentorlikning tarbiyachilarda pedagogik mahoratni rivojlantirish, innovatsion yondashuvlarni qo'llash hamda kasbiy faollikni oshirishdagi afzalliklari tahlil etilgan. O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida mentorlikning qo'llanilishi haqida ilmiy xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: mentorlik, kompetensiya, kasbiy shakllanish, globallashtirish, kommunikativ, kompetentlik, konstruktiv, innovatsion.

KIRISH

Bugungi globallashtirish davrida ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri – bo'lajak pedagoglarni raqobatbardosh kadrlar sifatida tayyorlashdir.

Maktabgacha ta'lim sohasida ham tarbiyachilar o'z kasbiy mahoratiga ega bo'lishlari, bolalar bilan ishlashda zamonaviy yondashuvlarni qo'llay olishlari zarur.

Shu nuqtai nazardan mentorlik jarayoni pedagogik mahoratni shakllantirishning samarali mexanizmi sanaladi.

Mentorlik — tajribali pedagog tomonidan yosh mutaxassisning kasbiy va shaxsiy shakllanishiga ko'mak berish jarayoni bo'lib, tarbiyachining amaliy faoliyatga moslashuvini tezlashtiradi, uni qo'llab-quvvatlaydi.

Mentorlik qobiliyatini shakllantirishda quyidagilarni inobatga olish zarur:

- Muhim sifatlaridan biri bu mentoringning chin dildan yordam berishga tayyor ekanligi.

- O'z bilim va tajribasini kelajak avlodga qoldirishga intilishi
- Atroflida o'ylab fikr bera olish qobiliyati (konstruktiv fikr bildirish)
- Yaxshi tinglovchi
- Yaxshi suhbatdosh
- O'z sohasida kuchli bilim va tajribaga ega
- O'ziga ishonchi yuqori, lekin shu bilan birga kamchiliklarini yaxshi tushungan inson

Bo'lajak tarbiyachi kerakli bilim, malaka va ko'nikmalarni ma'lum bir izchillik bilan egallab borsagina bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish ishida yaxshi natijalarga erishadi. Bo'lajak tarbiyachi mentorlik qobiliyatini shakllantirishda nutq madaniyati, uning nafaqat ma'naviy va axloqiy jihatdan boyligini, balki bilimini, tafakkurini, ilmiy



dunyoqarashini, fikr va mushohada yuritishini belgilovchi me'yordir. Mentorning nutq madaniyati birdaniga shakllanib maromiga yetadigan jarayon emas, u pedagogik mahorat bilan, kasb faoliyati davomida, tajribali ustozlar o'giti natijasida yillar davomida takomillashib, sayqallanib boraveradi. Mentorning nutqiy qobiliyati madaniy, kasbiy, pedagogik talablar asosida shakllanib boradi. Uni rivojlantirish faqat tarbiyachining shijoatiga bog'liq, Shu qobiliyat tufayli mentoring nutq madaniyati ham shakllanib boradi.

Mentorlik sifatlarini shakllantirishda tarbiyachida avvalo shaxsiy kompetensiyalar shakllangan bolishi zarur. Bu haqida B.D. Elkonin shunday fikrlarni bildirgan: "Kompetentlik-bilimdonlik, kasbga moslik, malakalilik, tajribalilik, mas'uliyatlilikni rahbarlik faoliyatiga singdirib borish demakdir. O'z sohasining, ishining ustasi bo'lish, sohasining sirlarini ham har tomonlama chuqur bilish demakdir"

Demak Mentorlik- o'qitish faoliyatini amaliy asosi bo'lib, malakani amaliy rivojlantirishda quyidagilarni o'zida mujassamlashtiradi: murabbiy ish usulidan qanday foydalanishini aytib beradi, uni qanday amalga oshirishini ko'rsatadi, so'ngra talabaga o'z kuchini sinab ko'rish imkoniyatini beradi, shundan so'ng u tushuntirish sharhi yordamida o'z harakatlarini baholaydi.

Murabbiy talaba bilan o'zaro munosabatda bo'lish jarayonida turli funktsiyalarni bajarishi mumkin, ammo bu usulning maqsadi har doim bir xil: eng samarali mashg'ulot taktikasini tanlash va yosh mutaxassisga o'ziga xos vakolatlarni o'rgatish.

Shungdek bu metod murabbiylik ta'lim texnologiyasi sifatida tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan talabani shakllantiradi. Bu usul orqali talaba tajribali hamkasblarining tajribasini o'zlashtiribgina qolmay, ta'lim jarayonini muntazam o'zgarib turadigan ehtiyojlariga qarab o'zgartiradi.

Bu metod pedagogik faoliyat jarayoniga individual qarash bilan bir qatorda, bir xil boshlang'ich bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan, muammolarni yakka tartibda va mustaqil ravishda hal qila oladigan tarbiyachilarni shakllantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.Q.Jabborova "Kompleks yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarni pedagogik tayyorgarligini takomillashtirish" Avtoreferat TDPU "Ilmiy axborotlari" jurnali tahririyati tomonidan 2023-yil 13-iyul.

2. Jabborova M.Q. The importance of education directed to the personality of the child in ensuring the education, upbringing, physical, mental and spiritual maturity of the child. Models and methods for increasing the efficiency of innovative research: a collection scientific works of the International scientific conference (11 November, 2022) - Berlin:2022. ISSUE 17 – 162 p <https://interonconf.org/index.php/ger/article/view/100>

3. Jabborova M, Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining asosiy funksiyalari. Scientific aspekts and trends in the fields of scientific research" International scientific-online conference. Part 7. February 28th. collections of scientific works. Warshava 2023.



4. Fotima Qodirova Shoista Toshpo'latova, Nargiza Kayumova, Malohat A'zamova
Maktabgacha Pedagogika 2019.